

QALAMTASVIR: TASVIRIY IFODA, PEDAGOGIK AHAMIYATI VA IJODIY RIVOJLANISHDAGI ROLI

Esanova Hulkar Abdurayim qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

email: hulkaresanova410@gmail.com

Annotatsiya: maqolada qalamtasvir san'ati tasviriy va amaliy san'atdagi o'rni, uning pedagogik ahamiyati va ijodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Qalamtasvir orqali talabalarda shakl, nisbat, perspektiva va yorug'-soya qonuniyatlarini o'zlashtirish, kuzatish va ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni yoritiladi. Shuningdek, maqolada qalamtasvir mashg'ulotlarining bo'lajak rassom va tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashdagi poydevor vazifasi, metodik jihatlari va san'at ta'limidagi pedagogik ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: qalamtasvir, tasviriy san'at, chiziq, tonal munosabatlar, perspektiva, kompozitsiya, pedagogik ahamiyat, ijodiy rivojlanish, kuzatuv, talaba.

Abstract: the article analyzes the role of pencil drawing in visual and applied arts, its pedagogical significance, and its impact on creative development. The process of developing students' skills in understanding shape, proportion, perspective, and light-shadow relationships, as well as fostering observational and creative thinking abilities through pencil drawing, is examined. Additionally, the article highlights the foundational role of pencil drawing lessons in preparing future artists and visual arts educators, along with its methodological aspects and pedagogical importance in art education.

Keywords: pencil drawing, visual arts, line, tonal relationships, perspective, composition, pedagogical significance, creative development, observation, student.

Аннотация: в статье анализируются место искусства рисунка в изобразительном и прикладном искусстве, его педагогическое значение и влияние на творческое развитие. Освещается процесс формирования у студентов навыков освоения формы, пропорций, перспективы, закономерностей света и тени, а также наблюдательности и творческого мышления посредством рисунка. Кроме того, в статье раскрываются роль занятий по рисунку как основы подготовки будущих художников и преподавателей изобразительного искусства, их методические особенности и педагогическое значение в художественном образовании.

Ключевые слова: рисунок, изобразительное искусство, линия, тональные отношения, перспектива, композиция, педагогическое значение, творческое развитие, наблюдение, студент.

Qalamtasvir tasviriy san'atning eng muhim va fundamental yo'nalishlaridan biri bo'lib, chiziq, shtrix va tonal munosabatlar orqali borliqni ikki o'lchamli tekislikda aks ettirish jarayonini ifodalaydi. Mazkur jarayonda qalam, pero, tush kabi grafika vositalari yordamida tasvir yaratiladi va u san'at asarining dastlabki konstruktiv asosini tashkil etadi. Qalamtasvir nafaqat tasviriy san'at, balki amaliy san'at hamda me'morchilikda ham muhim o'rin egallaydi, chunki har qanday badiiy asar, me'moriy loyiha yoki kompozitsion yechim avvalo qog'oz yuzasida qalam yordamida shakllantiriladi [6:182]. Shu bilan birga, qalamtasvir ijodiy jarayonning boshlang'ich bosqichi bo'lib, unda tasvirlanayotgan obyektning umumiy tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbatlari hamda chegaralari batafsil aniqlab olinadi, bu esa keyingi rangtasvir va haykaltaroshlik ishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Qalamtasvirda sof chizikli tasvirlar, tonal rasmlar hamda ushbu ikki usulning uyg'unligi orqali real voqelikni yanada aniq ifodalash mumkin. Chiziq tasviriy ifodaning asosiy vositasi bo'lib, u shaklning konstruktiv tuzilishini belgilash va kontur chegaralarini aniqlashga xizmat qiladi. Ton esa hajmni, fazoviy chuqurlikni, yuzaning fakturasini va yorug'-soya munosabatlarini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli qalamtasvir jarayonida qalamning turli turlari ochdan to to'q qora ranggacha bo'lgan tonal o'tishlardan foydalanish orqali tasvirning hajmiyligi, material fakturasi va fazodagi aniq joylashuvi yanada ravshan ko'rinadi [4:3]. Bu esa tasviriy san'atning asosiy ifoda vositalari kompozitsiya, perspektiva, proporsiya va yorug'-soya qonuniyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, rassomning badiiy tafakkurini chuqurlashtiradi va uning ijodiy qarorlarini yanada asosli qiladi.

Qalamtasvir rassom ijodining boshlang'ich bosqichi bo'lish bilan birga mustaqil san'at turi sifatida ham shakllangan. Portret, manzara va natyurmort kabi janrlarda yaratilgan ko'plab grafika asarlari buning yaqqol misolidir. Shu bilan birga, u rangtasvir, haykaltaroshlik va monumental san'at kabi yo'nalishlarda yordamchi bosqich vazifasini ham bajaradi, chunki avvalgi qoralama ishlar yakuniy asarning kompozitsion va estetik tuzilishini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Rassom har qanday kompozitsion g'oyani avvalo qoralama ko'rinishida qalam yordamida ishlab chiqadi, bu esa ijodiy izlanishlarning muhim bosqichi sifatida qaraladi va yakuniy asarning muvaffaqiyatli shakllanishiga poydevor yaratadi [8:372]. Tasviriy san'at tarixida mashhur rassomlarning ko'plab qoralama ishlari saqlanib qolgan bo'lib, ular rassomning ijodiy tafakkuri, badiiy qarashlari va ish uslubini chuqur o'rganishda bebaho manba hisoblanadi.

Tasviriy san'at nazariyasida qalamtasvir ta'limi alohida pedagogik ahamiyatga ega. Chunki u bo'lajak rassom yoki tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Qalamtasvir fanini chuqur o'zlashtirmasdan turib, kompozitsiya, rangtasvir, haykaltaroshlik hamda xalq amaliy san'ati kabi yo'nalishlarni mukammal egallash amaliy jihatdan qiyin bo'ladi. Shu

sababli mazkur fan talabalarni diqqat bilan kuzatish, tahlil qilish va real shakllarni to'g'ri tasvirlash ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatadi [7:2]. Shu bilan birga, u tasviriy tafakkur, estetik did, ijodiy fikrlash va muammolarni badiiy yechish qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi, bu esa bo'lajak rassomlarning ijodiy mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

Tasviriy san'at tarixida ko'plab buyuk rassomlar qalamtasvirni badiiy ta'limning asosiy bosqichi sifatida e'tirof etganlar. Uyg'onish davrining buyuk rassomi va olimi Leonardo da Vinchi o'zining "Rangtasvir qonunlari" asarida yosh ijodkorlarga avvalo rasm chizish san'atini mukammal egallash zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, tasviriy san'atni chuqur o'rganish uchun kuzatish, tahlil qilish va chiziq orqali shaklni aniq ifodalash mahoratini egallash muhimdir. Shu bilan birga, u yosh rassomlarni tasvirning hajmi, fazoviy chuqurligi va yorug'-soya munosabatlarini tushunishga ham tayyorlash zarurligini alohida qayd etgan [1:5]. Mazkur qarashlar bugungi kunda ham badiiy ta'lim tizimida o'z dolzarbligini yo'qotmagan va qalamtasvir mashg'ulotlarida metodik asos sifatida qo'llanilmoqda.

Qalamtasvirni o'rganish jarayonida metodik izchillikka amal qilish juda muhim hisoblanadi. Tasvirni yaratishda "umumiydan bo'laklarga, bo'laklardan yana umumiyga" tamoyili asosiy metod sifatida qo'llanadi, bu esa ijodiy jarayonni tartibga solishga yordam beradi. Ushbu jarayon analiz va sintez usullarining uyg'unligiga asoslanadi: avvalo tasvirlanayotgan obyektning umumiy shakli, konstruktiv tuzilishi va fazodagi joylashuvi aniqlanadi, keyinchalik uning alohida qismlari chuqur tahlil qilinadi va yakunda ular yana yagona kompozitsion butunlikka birlashtiriladi. Shu tarzda ishlash rassomga tasvirning realizm darajasini oshirish, obyektlarni tabiiy va aniqlik bilan ifodalash imkonini beradi [11:4]. Bu metodik tamoyil ayniqsa murakkab kompozitsiyalar va rangtasvir, haykaltaroshlik kabi boshqa san'at turlariga o'tishda mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Tasviriy san'atda perspektiva qonunlari qalamtasvirning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Jismning fazodagi joylashuvi, kuzatuvchiga nisbatan masofasi va burilish darajasi uning ko'rinishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masofasi ortgan sari jismlar hajman kichrayib ko'rinadi va parallel chiziqlar ufq chizig'i tomon yaqinlashib boradi. Bu hodisa chizikli perspektiva qonuni bilan izohlanadi, u rassomga obyektlarning fazodagi tabiiy joylashuvini aniqlashda asosiy ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi [9:156]. Ufq chizig'i esa kuzatuvchining ko'z balandligi darajasida joylashgan shartli chiziq bo'lib, barcha perspektiv qisqarishlar aynan shu nuqtaga bog'liq holda tasvirlanadi va kompozitsiyaning vizual uyg'unligini ta'minlaydi.

Shuningdek, fazoviy perspektiva ham tasviriy ifodaning muhim jihatlaridan biridir. U havo muhitining ta'siri natijasida jismlarning rang, kontrast va aniqlik darajasining o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Masofasi ortgan obyektlar odatda xira, sovuq va yengil tuslarda ko'rinadi, yaqin obyektlar esa aniqroq, yorqinroq va kontrastli

tasvirlanadi [5:2]. Bu hodisa rassomga fazo chuqurligini va tabiatdagi masofaviy munosabatlarni real tarzda ifodalash imkonini beradi, shuningdek, kompozitsiyada vizual ritm va chuqurlik hissini yaratishga xizmat qiladi.

Qalamtasvir jarayonida ishlatiladigan asosiy vositalardan biri grafit qalam hisoblanadi. Grafitli qalamlar qattqlik darajasiga ko'ra yumshoq (B), o'rta (HB) va qattiq (H) turlarga bo'linadi. Yumshoq qalamlar to'q tonlarni hosil qilishda, qattiq qalamlar esa aniq chiziqlar va konstruktiv tuzilmani belgilashda qo'llaniladi. Bundan tashqari, qalamning turli darajadagi qattqligi rassomga tasvirning tonal boyligi va fazoviy chuqurligini yaratish imkonini beradi [2:356], shuningdek, material fakturasini, yuzaning yorug'lik va soya munosabatlarini aniq ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Qalamtasvirning asosiy ifoda vositalaridan biri chiziq va shtrix hisoblanadi. Tabiatda real chiziqlar mavjud bo'lmasa-da, rassom jismlarning chegaralarini, konstruktiv tuzilishini va hajmini aniq ifodalash uchun chiziqdan faol foydalanadi. Shtrixlar esa shaklning hajmini, yorug'-soya munosabatlarini va material fakturasini tasvirlashda muhim rol o'ynaydi [10:1]. Shtrixlarning yo'nalishi, zichligi va qalinligi tasvirning umumiy plastikasini belgilab, uning vizual ritmi va dinamizmini yaratadi, shuningdek, tasvirning hajmiy va fazoviy tasavvurini mustahkamlaydi.

Yorug'lik va soya munosabatlari qalamtasvirning eng muhim elementlaridan biri bo'lib, ular yordamida ikki o'lchamli tekislikda uch o'lchamli hajm hissi yaratiladi. Yorug'lik manbai ta'sirida jism yuzasida yorug' qism, nimsoya, shaxsiy soya, refleks va tushuvchi soya kabi elementlar hosil bo'ladi. Ushbu elementlarning to'g'ri va izchil tasvirlanishi jismning hajmiylikini, yuzaning fakturasini va fazoviy joylashuvini aniq ifodalash imkonini beradi, bu esa qalamtasvirning realizm darajasini oshiradi [12:2]. Qalamtasvir san'ati nafaqat badiiy tasvirlash usuli, balki shaxsning estetik didi, kuzatuvchanligi va ijodiy tafakkurini shakllantiruvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Tasviriy san'at mashg'ulotlari jarayonida qalamtasvir orqali talabalarda borliqni kuzatish, shakl va nisbatlarni tahlil qilish, tasviriy tafakkur asosida mustaqil xulosa chiqarish va ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Shu jihatdan qalamtasvir o'quvchilarning ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [7:3]. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, tasviriy san'at mashg'ulotlari jarayonida chiziq va shakl bilan ishlash talabalarning tasavvur doirasini kengaytirib, ularda mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantiradi hamda san'atga bo'lgan qiziqish va estetik sezgirlikni oshiradi.

Bundan tashqari, qalamtasvir mashg'ulotlari pedagogik jarayonda nafaqat shaxsning estetik tarbiyasini rivojlantiradi, balki uning ruhiy holati, diqqatini jamlash qobiliyati va ijodiy faolligiga ham sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tasviriy faoliyat orqali o'quvchilar o'z fikr va hissiyotlarini erkin va ijodiy ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar, shuningdek, ularning vizual idroki va mantiqiy tafakkuri ham

mustahkamlanadi. Shu sababli tasviriy san'at ta'limida qalamtasvir mashg'ulotlari shaxsning estetik, ma'naviy va ijodiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholanadi [6:183]. Shuningdek, pedagogik tadqiqotlarda tasviriy san'at mashg'ulotlari orqali yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri ekani alohida ta'kidlanadi [3:304]. Bu jarayon nafaqat o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularni mas'uliyatli, diqqatli va muloqotga tayyor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, qalamtasvir tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslarini o'zida mujassamlashtirgan fundamental yo'nalishdir. U rassomning kuzatuvchanligi, tafakkuri, estetik didi va ijodiy tasavvurini rivojlantiradi. Qalamtasvir orqali shakl, nisbat, perspektiva va yorug'-soya qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirgan ijodkor keyingi bosqichlarda rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik va boshqa san'at turlarida ham yuqori natijalarga erisha oladi. Shu bois qalamtasvirni tasviriy san'at ta'limining poydevori, shuningdek, pedagogik va estetik tarbiya vositasi sifatida baholash mumkin. Bundan tashqari, qalamtasvir mashg'ulotlari talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy qaror qabul qilish va o'z badiiy g'oyalarini amalga oshirish qobiliyatlarini shakllantirishda ham beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хайров Расим. ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД И СОЗДАНИЕ СИТУАЦИИ УСПЕХА НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. В International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 02, February (2024) Zenodo.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10778131>
2. Odiljon I., Gulnoza H. TALABALARNI CHIZMACHILIK DARSLARIDA IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH //Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal. – 2024. – T. 2. – №. 1. – С. 355-358.
3. Imomov, F. S. o'g'li . (2023). TARBIYASI OG'IR BOLALARNI QAYTA TARBIYALASHDA TASVIRIY SAN'ATNI O'RNI. SCHOLAR, 1(33), 302–306.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10341543>
4. Yusupova Shoxista Alimjanovna. (2025, октябрь 21). IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPOZITSIYANING PEDAGOGIK AHAMIYATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17407745>.
5. Shoxista, Y. "TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI." Uz-Conferences, 2023.
6. Faxriddinovich, Xamrayev Abubakir. "TASVIRIY SAN'AT FANINING TA'LIM JARAYONIDA SHAXSNI ESTETIK VA IJODIY RIVOJLANTIRISHDAGI

- PEDAGOGIK AHAMIYATI." TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI 2.4 (2025): 181-187.
7. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo." 2025,
 8. Babadjanov A. X. TASVIRIY SAN'AT VA FIZIOGNOMIKA FAN INTEGRATSIYASI: PORTRET JANRI MISOLIDA //Inter education & global study. – 2025. – №. 3. – C. 369-378.
 9. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Education of Young People in Eastern and Modern Spirit Taking Historical Values into Account." Innovative Science in Modern Research (2023): 156-157.
 10. Baxtiyarova, F. "MODERN TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS." IIm-Fan Va ta'lim 1.1 (2023).
 11. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "ORGANIZING VISUAL ARTS LESSONS AND ENHANCING THEIR EFFECTIVENESS BASED ON MODERN PEDAGOGICAL REQUIREMENTS." CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY. Vol. 1. No. 5. 2025.
 12. Esanova Hulkar Abdurayim qizi. (2026, февраль 18). RANGTASVIR TA'LIMIDA RANGNING ESTETIK, PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK AHAMIYATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18684501>